

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

ISSN: 2181-4163

IMPACT FACTOR: 8.2

The international scientific journal "Interpretation and researches" publishes the results of scientific research conducted by school teachers, university students, professors and teachers, and independent researchers in the form of scientific articles. This journal is indexed in authoritative databases and published in electronic form.

The international scientific journal has certificate No. 054841 of the Agency for the Development of Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan. The journal accepts articles in the following areas: 1. Exact sciences 2. Natural sciences 3. Engineering sciences 4. Pedagogical sciences 5. Social and human sciences 6. Medical sciences. Note for authors of articles: articles are accepted in Uzbek, Russian, English, Karakalpak.

INTERPRETATION AND RESEARCHES

GOOGLE SCHOLAR ZENODO CYBERLENINKA OPEN AIRE

interpretationandresearches.uz



№20
20.12.2023



International scientific journal
“INTERPRETATION AND RESEARCHES”

volume 1 issue 20
20. 12. 2023





International scientific
journal
“Interpretation and
researches”

Bosh muharrir:
R.I.Abdullayev

Bosh muharrir o'rinbosari:
N.I.Xolmatova

Texnik muharrir:
X.D.Halimboyev

Jurnal O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy
kommunikatsiya agentligi
tomonidan
2022- yil 22-dekabr sanasida
№054841 raqam bilan davlat
ro'yxatidan o'tkazilgan

ISSN 2181 - 4163

Jurnaldan maqola ko'chirib
bosilganda, manba
ko'rsatilishi shart.

Aloqa uchun:
Telefon: +99891-152-93-14
E pochta: talqin@bk.ru

interpretationandresearches.uz

Tahrir hay'ati a'zolari (O'zbekiston)

Masharipova Gularam Kamilovna

Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Umarova Maxliyo Yunusovna

Filologiya fanlari doktori
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Hojiyev Sanjar Samadovich

Buxoro davlat universiteti “Agonomiya va
tuproqshunoslik” kafedrasida katta o'qituvchisi (PhD)

Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna

Falsafa fanlari doktori, professor
O'zbekiston Milliy universiteti

Navruzova Gulchixra Nigmatovna

Falsafa fanlari doktori, professor
Buxoro muxandislik-texnologiya instituti

Djumaniyazova Feruza Djumanazarovna

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori
O'zR FA Sharqshunoslik instituti

Akbarov Qobuljon

Qo'qon DPI, Tarix fanlari nomzodi

Bazarov Otabek Odilovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori
Qo'qon davlat pedagogika instituti

Zokirov Sanjar Ikromjon o'g'li

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori.
Farg'ona politexnika instituti

Akramov Shukurjon To'xtasinovich

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Qo'qon davlat pedagogika instituti

Xasanov Akbarjon Abdurashidovich

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Qo'qon davlat pedagogika instituti

Ibragimova Mavluda Ro'zmetovna

Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori
O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti katta
ilmiy xodimi

Yakubov Ilham Yuldashevich

Kimyo fanlari nomzodi
FarDU Kimyo kafedrasida dotsenti

Maxmudova Nilufarxon

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Qo'qon davlat pedagogika instituti

Rahmatullayeva Dilafro'zxon

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Qo'qon davlat pedagogika instituti

Eshquvvatov Ulug'bek Abdulla o'g'li

Termiz muhandislik – texnologiya instituti
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Azimov Zikrjon Muhammadovich

Farg'ona davlat universiteti tuproqshunoslik kafedrasida
katta o'qituvchisi b.f.f.d., (PhD)

Nazarov Mustaqim Rashidovich

Buxoro davlat universiteti Pedagogika instituti Aniq
fanlar kafedrasida, dotsenti

Nazarova Nargiza Mustaqimovna

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Tahrir hay'ati a'zolari (Xorijiy davlatlar)

Abdulkarimov Jamoliddin Ahmadaliyevich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Xo'jand davlat universiteti
Tojikiston

Muxtorov Kiromuddin Tochievich

Huquqshunoslik fanlari nomzodi,
dotsent
Xo'jand davlat universiteti
Tojikiston

Hamdamov Serali Jumabekovich

Matematika-fizika fanlari nomzod
Xo'jand davlat universiteti
Tojikiston

G'ufonov Dodaxon Najmidinovich

Geografiya fanlari nomzodi
Xo'jand davlat universiteti
Tojikiston

Bahriev Fayzullojon Faxriddinovich

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Xo'jand davlat universiteti
Tojikiston

Fuat Serkan Say

Phd, Mersin Universiteti
Turkiya

Tuba Tombuloglu

Phd, Mersin Universiteti
Turkiya

Hayrettin Ihsan Erkoç

Chanakkale Onsekiz Mart Universiteti
Turkiya

Abdul Khalil Ahmadoughli

Baxl Universiteti Til Va Adabiyot
Fakulteti O'zbek Tili va Adabiyoti
dotsenti,
Avg'oniston

LINGVODIDAKTIKANI SHAKLLANTIRGAN QARASHLAR

Arolova Nafisa Akbar qizi

Stajor-o‘qituvchi, Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
nafisa@arolova6gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola bugungi til o‘qitish ta’limining shakllanish tarixiga qaratilganligi nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim sohasining eng dolzarb masalalaridan biri ta’limning samaradorligini oshirishdir. Turkiy mutafakkirlarning asarlarida lingvodidaktika aynan hozirgidek atalmagan bo‘lsa ham, ular ta’lim jarayonining qonuniyatlarini belgilash, uni tashkil etishning yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatishi jihatidan katta ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Til ta’limining innovatsion shakli, integratsiya, yosh psixologiyasi, psixolingvistik yondashuv, hissiy va aqliy bilish, psixologik o‘yinlar.

Annotation. This article is important from the point of view of focusing on the history of formation of today’s language teaching education. One of the most urgent issues in the field of education is improving the effectiveness of education. Although the works of Turkish thinkers are not called linguodidactics exactly as it is now, they are of great importance in terms of defining the laws of the educational process and showing the guidelines for its organization.

Keywords: Innovative form of language education, integration, youth psychology, psycholinguistic approach, emotional and mental cognition, psychological games.

XX asrning birinchi yarmiga kelib, tilshunoslik va metodologiya integratsiyasi natijasida lingvodidaktika fani paydo bo‘ldi. Til o‘qitishning umumiy nazariyasini yaratish bilan shug‘ullanuvchi ushbu fan atamasi lotincha lingua “til”, yunoncha didaktikos “ta’lim” so‘zlaridan olingan. So‘zma-so‘z tarjimasi til ta’limi nazariyasidir. Atama tarkibidagi didaktika so‘zini ilk bor XVII asr boshlarida olmon tilshunos olimi Wolfgang Ratixiy-Ratki “o‘qitish san’ati” ma’nosida fanga kiritgan. U didaktika nomi ostida nazariy va metodologik asoslarini tatqiq qiladigan ilmiy fanni tushunadi. Didaktikaning ilmiy-fundamental asoslarini ilk bor chex olimi Ya.A.Kamenskiy tomonidan ishlab chiqilgan. U “Buyuk didaktika” asarini 1657-yilda yozib tugatadi. Olim didaktika nomi ostida “Hammani hamma narsaga o‘rgatish san’ati” deb tushunadi. Ushbu fan XIX asrning o‘rtalariga kelib alohida fan sifatida o‘rganila boshlandi. Didaktika pedagogika, psixologiya, psixolingvistika va bilish nazariyasi bilan bog‘liq. Bu fanlar bir-birini to‘ldirgan holda bilish faoliyati hamda uni amalga oshirilish jarayoni to‘g‘risida bilim beradi. Didaktika ta’lim jarayonida,

ayniqsa, maktab ta’limida uchraydigan har xil hodisalarning o’ziga xosligini hisobga oladi.

O’zbekistonda dastlab jadid maktablarida didaktikaning tamoyillarini ishlab chiqishga harakat qilingan. O’zbek milliy pedagogikasi tarixiga nazar solsak, didaktikaning asosiy xususiyatlari yoritilgan ko’pgina tadqiqotlar mavjud. Turkiy mutafakkirlarning asarlarida didaktika aynan hozirgidek atalmagan bo’lsa ham, ular ta’lim jarayonining qonuniyatlarini belgilash, uni tashkil etishning yo’l-yo’riqlarini ko’rsatishi jihatidan katta ahamiyatga ega. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad al-Farg’oniy, Marg’inoniy, Navoiy, Munis singari mutafakkirlarning ta’limni uyushtirish, uning samaradorligini oshirish, o’qitish jarayonida o’qituvchi va o’quvchi munosabatlari borasidagi qarashlari jahon pedegogikasi taraqqiyotining o’ziga xos bosqichini tashkil etadi.

Abu Nasr Farobiy ko’plab asarlarida ta’lim olish masalasiga katta e’tibor berib, o’quvchi shaxsiga xos bir qancha fazilatlarga xolisona baho bergan. U bilishda, asosan, ikki bosqichni – hissiy va aqliy bilish turlarini farqlaydi. Bilishda inson aqlining rolga alohida ahamiyat beradi. Qomusiy olim tushunishni, bilimning mohiyatini uqib, anglab olishni yodlab olishdan ustun qo’yadi. Farobiy bilishda mantiqqa murojaat qilmagan kimsani qorong’ida o’tin yorgan odamga o’xshatadi. Ul zot tufayli musulmon Sharqi falsafiy tafakkurida mantiq ilmi chuqur ildiz otdi. Olim fikricha, insonning baxt-saodatga erishishida olam asoslari haqidagi ilmni, tabiiy jismlarning tuzilishini, osmon, jonli tabiat – o’simlik va hayvonot olami to’g’risidagi barcha bilimlarni o’zlashtirib olishi mumkin²³. Abu Nasr Farobiy: ”Insonlar turli ilm, hunar faoliyatiga moyilligi va qobiliyatligi bilan tabiatan farq qiladilar. Teng tabiiy xislatlarga ega bo’lgan insonlar esa o’z tarbiyasi (malakasi) bilan tafovut qiladilar. Tarbiyasi jihatdan teng bo’lganlar esa bu tarbiya natijalarining turlichaligi bilan bir-biridan farq qiladilar”²⁴. Farobiy o’quvchiga umumiy qonun-qoidalarini o’zlashtirishni tavsiya qiladi. Har qanday o’quvchi o’z xatti-harakatidan xabardor bo’lmog’i, ya’ni o’zini anglashi, o’zini refleksiya qilish ko’nikmalariga ega bo’lishi va shu sa’y-harakatlari bilan baxtga erisha oluvchi insonligini anglamog’i lozim.

Ibn Sino: “Bola xulqini mo’tadillikda saqlashga alohida e’tibor berish kerak, bunga esa qattiq g’azablanishdan, qo’rqish, xafalik va uyqusizlikdan saqlash orqali erishiladi. Bolaning xohlagan va foydali narsasini darhol topib berishga, sevmagan narsasini ko’zdan uzoqlashtirishga doim tayyor bo’lib turish kerak. Bu ishning ikki foydasi bor. Bir tomondan, bolaning ruhiga foyda qiladi, bola eng yosh chog’idanoq xushxulq bo’lib o’sadi va bora-bora unga bu xushxulqlik odob bo’lib qoladi. Ikkinchi tomondan, bolaning tanasiga foyda qiladi, chunki yomon xulq turli mijoz buzilishlaridan paydo bo’ladi”. 6-7 yoshdagi bolalarni jamoa tarzida bir joyda

²³ Nazarov Q. Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug’ati. – Toshkent. 2022. – B.145.

²⁴ Nishanova Z. Rivojlanish psixologiyasi. – Toshkent, 2018. – B.336.

o‘qitishning samaradorligi ilk bor Ibn Sino tomonidan ko‘rsatib berilgan. Chunki bu davr bolaning o‘qish-o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqi baland vaqt ekanligidan dalolat beradi. Ta’lim asta-sekinlik bilan berilishi lozim. Ya’ni yosh bolani birdaniga kitobga bog‘lab ham qo‘ymaslik kerak. Qomusiy olim mantiq ilmi bilan shug‘ullangan kishida tafakkur olami keng, insonlar ruhiyati, fe‘l-atvorini tushunish darajasi atrofida qilarga qaraganda yuqori bo‘lishini ta’kidlaydi. Ibn Sinoning fikricha, inson axloqli yoki axloqsiz bo‘lib dunyoga kelmaydi. Ya’ni kishilar tayyor sifatlar, ko‘nikmalar, fazilat va illatlar bilan dunyoga kelmaydi. Ular aslida hayotda shaxsiy va o‘zgalar tajribasi, ajdodlar an‘analari, ta’lim-tarbiya natijasida yuzaga keladi. Ibn Sino voqelikning bilish jarayonini in‘ikos ta’limoti bilan bog‘laydi. Kishilarning sezgi a‘zolariga ta’sir eta olmaydigan har qanday narsa, hodisa bilish chegarasidan tashqaridadir²⁵.

Abu Rayhon Beruniy ham o‘z asarlarida o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga oid fikrlar keltirgan. Jumladan, bilimli bo‘lish uchun o‘quvchilarda, avvalo, qiziqish va intilish bo‘lishi kerak. Qomusiy olim o‘qitishning faqat induktiv ya’ni umumiy xulosa berish yo‘li bilan emas, balki deduktiv ya’ni juz’iy xulosalash tarzida ham berish kerakligini o‘z asarlarida keltiradi. O‘qishga bunday yondashish tafakkur kengaytiradi, bilimlarning ortib borishiga sabab bo‘ladi. Beruniy o‘qituvchilar o‘quvchining e’tiborini analiz, taqqoslash, qiyoslash, umumlashtirish kabi tafakkurini kengaytiradigan jarayonlarga qaratishlari lozimligiga alohida e’tibor beradi. Negaki, ifodali, ongli, to‘g‘ri, tez o‘qish o‘quvchilarning savodli bo‘lishini ta’minlovchi asosiy tarkibiy qismlar hisoblanadi. Abu Rayhon Beruniy: “Hadeb bir narsani o‘qitish va o‘rgatish zerikarli bo‘ladi, toqatni toq qiladi. Agar shogird bir masaladan boshqa masalaga o‘tib tursa, u xuddi turli-tuman bog‘-rog‘larda sayr qilgandek bo‘ladi, bir bog‘dan o‘tar-o‘tmas boshqa bog‘ boshlanadi. Kishi ularning hammasini ko‘rgisi keladi va tomosha qilgisi keladi. Har bir narsa rohat bag‘ishlaydi”. Zotan, bugungi kunda ham ongli, ifodali, to‘g‘ri, tez o‘qish hozirgi zamon o‘quvchilarining savodli bo‘lishini ta’minlovchi asosiy tarkibiy qismlardandir. Yana o‘qishga bo‘lgan qiziqishni so‘ndirmaslik uchun bolalarning yoshiga xos psixologik xususiyatlar, albatta, inobatga olinishi kerakligini e’tirof etadi.

O‘quvchilarning psixologik xususiyatlariga oid qarashlar Umar Xayyom asarlarida ham yoritib berilgan. U ta’limga fan va hayot uzviy aloqadorligi haqidagi qarashlarni olib kirgan. Hayotda bo‘lgan jarayonlarni o‘rganish va kuzatish, amaliyot tahlillari davomida bilim, malaka va ko‘nikmalarni har xil usullarda qayta-qayta takrorlab borish jarayonida egallaydilar. Buning uchun o‘qituvchi **“Ko‘p o‘ylab maqsadga erishish mumkin”, “Sen osongina o‘ylayapsan”, “Biroz o‘ylagandan keyin tushunib olasan”** kabi jummalarni ishlatib, o‘quvchilarni mulohaza qilishga

²⁵ Nazarov Q. Ko‘rsatilgan asar. – B.171.

undab, asta-sekinlik bilan o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqlarini oshirishga harakat qilishlari lozim.

Muhammad Rizo Ogahiy o‘z asarlarida insonning komil bo‘lib kamolga yetishishi uchun yoshlikdan ilm egallashi, kasb-hunar o‘rganishini shart qilib qo‘yadi. Shoirning fikricha, ilm-ma‘rifat taraqqiyotga yetishish kalitidir. U inson aqlini boyituvchi xazina – ilmga xalq o‘yinlari orqali yetishish mumkinligini yozib qoldirgan. Aslida, xalq o‘yinlari psixologik o‘yinlar hisoblanadi. Bir vaqtda bola ham ta‘lim oladi, ham shakllanadi.

Sulaymon Boqirg‘oniy: “Ustoz-shogird o‘rtasida beg‘araz, samimiy munosabat bo‘lishi kerak. Shuning uchun ustozlar shogirdlarini farzand, suhbatdosh, fikrdosh deb atagan. Ustoz shogirdini ma‘naviy tarbiyalashda quyidagi psixologik ta‘sir usullaridan unumli foydalanishi zarur:

- Ishontirish va o‘z-o‘zini kuzatish vositasida shogirda fikrlash masalasini hosil qilish. Ustoz va o‘zgalar oldida shogird qat’iy odob-axloqqa rioya qilishi shart. Natijada bunday tarbiyalangan shogirdlardan el nolimaydi, aksincha, ular bilan faxrlanadi.

- Ustoz o‘z shogirdini muayyan maqsad sari yetaklab, u voyaga yetgach, mustaqil faoliyat yuritishi uchun ijozat berishi lozim.

- Katta-yu kichik, ijtimoiy tabaqasi va mavqeidan qat’i nazar, barchaning ustoz tarbiyasini olishi maqsadga muvofiqligi”.

Insonlarning najotkori ilm ekanligi Abdulla Avloniy fikrlari bilan monand. Ma‘rifatparvar alloma ilmning nazariy ahamiyati haqida fikrlabgina qolmay, uning amaliy faoliyat uchun hayotiy zarurat ekanligini ham ta‘kidlaydi. Ilm orqali inson halol-haromning farqiga borishi, yaxshi-yomonni tanishi, o‘z haq-huquqlarini bilishi mumkin. Kishilarning bilimi, amaliy malakalari rivojisiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bilim insonning hayot tajribasi orqali orttirilgan barcha tushunchalar, amaliy malakalarni o‘z ichiga oladi. Bilimning cho‘qqisi ilmdir. Bilimlar tabiat, jamiyat, inson ruhiyati qonunlarini chuqur o‘rganish natijasidagina ilmga aylanadi²⁶.

O‘zbek milliy didaktikasining shakllanishida jadidchilik harakati, xususan, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abduqodir Shakuriy, M.Behbudiy, M.So‘fizoda kabi ma‘rifatparvar-pedagoglarning faoliyatini alohida tilga olish zarur. Ular ta‘lim-tarbiyaning nazariy jihatlarini bilan emas, amaliy masalalari bilan shug‘ullandilar. Ta‘limning shaxs omiliga yo‘naltirilganligi milliy didaktikada yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ya‘ni ta‘lim uchun bilim emas, asosiy qadriyat o‘quvchi shaxsini shakllantirishdan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari o‘zbek milliy didaktikasida insonparvarlik, o‘quvchining individual, mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olish kabi tamoyillari ham borki, ularda har bir o‘quvchi

²⁶ Nishanova Z. Rivojlanish psixologiyasi. – Toshkent, 2018. – B.340.

uchun o‘ziga xos o‘qitish jarayoni xususiyatlari borligi zaruriy talablar qilib ko‘rsatilgan.

Xullas, Sharq mutafakkirlari o‘z qarashlarida o‘qish jarayoni davomida o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini inobatga olish, imkon qadar ularga individual yondashish orqali ta’lim berishni e’tirof etishgan. Ularning ta’lim borasidagi ko‘p qarashlari bugungi kunda ham o‘zining yuqori bahosiga ega. Bugungi kunda bilimga asoslangan jamiyatda axborotni izlash, saralash va qabul qilish, tushunish va uni tahlil qilish, tavsiflash, tuzish va qayta ishlash muhim aqliy ko‘nikmalarni egallashga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘z fikrini ham og‘zaki, ham yozma shaklda savodli yarata oladigan, mustaqil shaxsiy fikrga ega, dunyoqarashi keng o‘quvchini tarbiyalash ona tili ta’limining asosiy maqsadini belgilaydi. O‘quvchining til materiali va vositalarini nutqda qo‘llay bilish uchun yetarli bilimlarni o‘zlashtirishi, muayyan bir xabarni yoki ma’lumotni turli shakllarda bera olish, badiiy, ilmiy asarlarni o‘rganib, ular haqidagi fikr-mulohazasini og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri bayon eta olish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. “O‘zbekiston”, Toshkent, 2022.
2. Quronov M. “Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz”. Tarbiya kitobi, Toshkent, “Ma’naviyat”, 2014.
3. Rafiqov Q. “Mening Prezidentim”. Toshkent, “Akademnashr”, 2021.
4. Nishanova Z. va boshq. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Toshkent. 2018.
5. Ma’naviyat yulduzlari. Toshkent. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2001.